

## O'zbekistonda plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilish: natijalar, muammolar va tavsiyalar

**Shahina Narzullayevna Jo'rayeva**

O'zDJTU siyosiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

[Shahrus8689@gmail.com](mailto:Shahrus8689@gmail.com)

**Annotatsiya:** O'zbekistonda plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilish borasida bir qator dasturlar va loyihalar amalga oshirilgan. Shunga qaramay hali ham plastik chiqindilar bilan bog'liq muammolar globaligicha qolmoqda. Plastik chiqindilardan butunlay qutilib bo'lmaydi, ammo ularning ma'lumo bir qismini qayta ishlash mumkin. Bu uchun esa plastik chiqindilarni ishlab chiqarish, iste'mol qilinish, yig'ish va qayta ishlash jarayonini nazorat qilib boruvchi mexanizmlashtirilgan tizim bo'lishi kerak. Ushbu tezisda O'zbekistonda plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilish: natijalar, muammolar va tavsiyalar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinadi va xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** plastik chiqindilar, qayta ishlash jarayoni, xorij tajribasi (Germaniya misolida), inventarizatsiya, zamonaviy texnologiya, loyihalar.

Bugungi kunda plastik chiqindilar ekologik inqirozning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib, atrof-muhitni jiddiy ravishda ifloslantirmoqda. Plastik o'zining arzonligi, uzoq xizmat muddati va ko'p funktsional xususiyatlari bilan bir qator sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi, ammo uning tabiatda uzoq vaqt parchalanmasligi ekologik xavflarni kuchaytirmoqda. Biroq, ko'plab mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston ham, plastik ifloslanishni kamaytirish va chiqindilarni boshqarish uchun turli choralar ko'rmoqda.

O'zbekiston ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro tajribalarni hisobga olib, plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilish jarayonini amalga oshirdi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Barqaror rivojlanishga ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilishni boshladi. Mazkur loyiha "Olis va tog'li hududlardagi plastik chiqindilar" nomi bilan amalga oshirilmoqda va BRS konvensiyalari kotibiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Inventarizatsiya jarayoni O'zbekistonning plastik ishlab chiqarish hajmi, uning iste'mol qilish va qayta ishlash ko'lamini tahlil qilishga yordam berdi.

Taqdiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, plastik chiqindilar hajmi ortib bormoqda, 2022-yilda umumiy hajm 249,241 tonnaga yetgan, bu esa 2013-yildan 147% ko'p. Chiqindilarning asosiy manbai sifatida qadoqlash materiallari ko'rsatilgan, chunki ular tezda foydalanib bo'lingandan keyin tashlanadi. Transport va qurilish sohalaridagi chiqindilar ko'proq uzoq muddat xizmat qiladigan materiallar bilan bog'liq bo'lib, ularning o'sishi sekinroq kuzatilmoqda. Bundan tashqari, hozirgi kunda O'zbekistonda yiliga 10,2 million tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'ladi, ulardan 10,3% (1,05 million tonna) plastik chiqindilarni tashkil etadi. Plastik mahsulotlar, ayniqsa, polietilen paketlar keng tarqalgan va mamlakatga plastik mahsulotlarning importi eksportdan ancha oshib ketgan.

Germaniyada aholiga plastik chiqindilarni alohida yig'ish va saralash uchun qulay tizimlar mavjud. Eng mashhur va keng qo'llaniladigan tizim "Gelber Sack" bo'lib, aholiga plastmassa chiqindilarini ajratib yig'ish va tashlab ketish imkonini beradi. Bu tizim mamlakat bo'ylab keng tarqalgan va u orqali plastik, shisha va metall chiqindilari ajratiladi. Ajratilgan chiqindilar esa keyinchalik qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Shuningdek, Germaniyada "Pfand" tizimi mavjud bo'lib, bunda ichimliklar uchun plastik va shisha idishlarni qaytarish orqali foydalanuvchilarni rag'batlantiradi. Ushbu tizim orqali plastik idishlarni qaytarish eng yuqori darajada amalga oshiriladi.

Plastik chiqindilarni samarali boshqarish va ulardan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Misol tariqasida ushbu vaziyatni yaxshilash uchun:

- Plastikni qayta ishlash korxonalari sonini oshirish, alohida yig'ish punktlarini yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish lozim. Bu chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi.
- Aholi orasida ekologik xabardorlikni oshirish uchun axborot dasturlarini joriy etish, maktablarda va korxonalarda chiqindilarni saralash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish muhimdir.
- plastik mahsulotlar ishlab chiqarish va iste'mol qilishni cheklash bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir. Bu, bir martalik plastik mahsulotlar uchun to'lov tizimi yoki plastiksiz mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.
- plastikni qayta ishlashda yangi texnologiyalar va metodlarni joriy etish, xususan, bioplastiklar va ekologik toza materiallarga o'tish uchun tadbirkorlarni rag'batlantirish lozim. Shuningdek, plastikni qayta ishlashda

yangi texnologiyalarni mamlakatda ishlab chiqarishga oid loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

**Xulosa qilib aytganda,** O‘zbekistonda plastik chiqindilarni inventarizatsiya qilishning natijalari mamlakatning ekologik holatini tahlil qilish va chiqindilarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita bo‘ldi. Taklif etilgan chora-tadbirlar, nafaqat plastik chiqindilarni kamaytirish, balki qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu O‘zbekistonning chiqindilarni barqaror boshqarish sohasida Markaziy Osiyoda yetakchi bo‘lishiga yordam beradi.